



Coverage of the Afrighid Dynasty in Chinese Sources

Mardonbek RAJAPOV¹

Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2024
Received in revised form
28 February 2024
Accepted 20 March 2024
Available online
15 April 2024

Keywords:

tribute,
vassal,
Huoxun,
24 Histories,
Xiyu Zhuan,
Jiaohu,
Jamuk,
Shaushafar,
Wei Shu,
Datang Xiyu Ji,
Wugu.

ABSTRACT

This article explores the history of the Afrighid dynasty, which ruled Khorezm from the 4th to the 10th centuries, as depicted in Chinese sources. Additionally, the authors investigate the methodologies and conclusions employed by researchers in illuminating the history of early medieval Khorezm through Chinese historical records.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3/S-pp271-277>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xitoy manbalarida Afrig'iylar sulolasining yoritilishi

ANNOTATSIYA

Maqolada Xorazmni IV–X asrlarda boshqargan Afrig'iylar sulolasi tarixining Xitoy manbalarida qay darajada eks etishi va ilk o'rta asrlar Xorazm tarixini yoritishda tadqiqotchilar Xitoy manbalaridan foydalanib qanday yondashuv va xulosalarni qabul qilganliklari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar:

Tribut,
Vassal,
Huoxun,
24 Shi,
Xiyu Zhuan,
Chjavou,
Jamuk,
Shaushafar,
Vey Shu,
Datang Xiyu Ji,
Vuguo.

¹ Basic doctoral student, Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Освещение династии Афригидов в китайских источниках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Трибут,
вассал,
Хуосюнь,
24 Ши,
Сию Чжуань,
Цзяоу,
Джамук,
Шаушафар,
Вэй Шу,
Датан Сию Цзи,
Угуо.

В этой статье анализируется история династии Афригидов, которая правила Хорезмом с IV по X век, на основе китайских источников. Авторы также рассматривают подходы и выводы исследователей, использующих данные источники для освещения истории раннесредневекового Хорезма.

KIRISH

Afrig'iylar sulolasi 305-995-yillarda hozirgi Markaziy Osiyoning (O'zbekiston, Turkmanistan va Qozog'istonning bir qismi) hududida joylashgan Xorazm mintaqasini boshqargan sulola hisoblanadi. Tadqiqotga jalb qilingan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixiga bag'ishlangan asarlar va yozma manbalar juda kam. Bunga izoh sifatida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi parchani keltirishimiz mumkin bo'lib, unda: *"Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimlarni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilgan edi"* [15, 72-b.]. Davr nuqta-nazaridan mazkur sulolaning hukmronlik yillari juda murakkb hisoblanib, xalqaro siyosiy maydonda Sosoniylar, Eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Tohiriylar va Somoniylar kabi davlatlarning paydo bo'lishi va kuchayishi fonida davom etdi. Arablarning Xorazmga bosqini natijasida Xorazm tarixining qorong'u sahifalarini yoritib beruvchi ko'plab tarixiy asarlar umuman yo'qolib ketgan bo'lsa, ulardan ayrimlarining faqat ma'lum bir qismigina bizgacha yetib kelgan. Shuning uchun ham, hanuz Afrig'iylar davrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy tarixi Xorazm tarixining eng kam o'rganilgan, muammoli mavzuligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. Manbalar tahlili: Tadqiqotda 24 Tarix to'plami (24 Shi), Veyshu, Datang Siyu Szi kabi Xitoy manbalaridagi Xorazm tarixiga tegishli ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali ularning ishonchliligi baholandi.

2. Qiyosiy tahlil: Xitoy manbalaridagi ma'lumotlar arab, fors va arxeologik manbalardagi ma'lumotlar bilan solishtirildi. Solishtirma tahlil jarayonida Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarning boshqa manbalarda aks etish darajasi yoki manbalar o'rtasidagi ziddiyatli voqealar tafsiloti tahlil qilindi.

3. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tadqiq etilayotgan mavzu doirasida milliy tarixshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan birga xorijlik olimlar, xususan xitoy, ingliz va turk tilidagi tadqiqotlardan keng foydalanildi.

4. Ma'lumotlarni sintezlash: Turli manbalardan olingan ma'lumotlar birlashtirilib, Afrig'iylar sulolasi tarixining yaxlit tasviri yaratildi.

ASOSIY QISM

Tadqiqotimizda Afrig'iyalar sulolasi davri tarixini yorituvchi manbalarni hududiy jihatdan Xitoy, Vizantiya, fors va arab guruhlariga bo'lgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xitoy va Vizantiya manbalari Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda juda qisqa va noaniq bo'lib, ularda asosan siyosiy voqealar, o'zaro elchilik aloqalari ma'lumotlari o'rin egallaydi. Umuman, Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda Xitoy manbalarining ahamiyatiga tadqiqotchilarning bergan bahosi yakdil bo'lib, manbalardagi ma'lumotlarning qisqaligi, voqealar tafsiloti keng va batafsil bayon etilmaganligi tufayli sulola tarixini tadqiq qilishda vujudga keladigan muammo va kamchiliklarni alohida ta'kidlashgan [1, 93-b; 11, 122-b].

Bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda ilk o'rta asrlarda Xorazm tarixiga oid Xitoy manbalari tahlili bo'yicha bir qator masalalar ko'tarilgan:

- Xitoy manbalarida Xorazmning nomlanishi va chegarasi qanday belgilanganligi;
- Xitoy va Xorazm o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarning xarakterli jihatlari;
- Xitoyga jo'natilgan Xorazm elchilarining tarkibi va vazifalari;
- Xitoy manbalarida zikr qilingan Xorazm shaharlari va qishloqlari haqidagi ma'lumotlarning aniqligi.

Mavjud adabiyot tahliliga ko'ra, Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixiga oid Xitoy manbalari tahlili bo'yicha yuqoridagi masalalar biron-bir mavzu doirasida atroflicha o'rganilgan. Biroq Xitoy manbalariga tayangan mavjud tadqiqotlar Xorazm Afrig'iyalarining IV–X asrlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotining umumiy va yaxlit manzarasini ochib bermaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlardan ma'lumki, Xitoy saroyi doimo o'zini jahon markazi deb hisoblagan va xorijiy savdogarlar imperiyaning shon-shuhratini oshirish maqsadida tribut* olib keluvchi elchilar deb qaralgan. Xitoy hukumati ularni qabul qilish uchun idoralar va mehmonxonalarini tashkil etgan. Tashqi dunyo haqida ko'pchilik ma'lumotlar shu savdogarlardan olingan. Rasmiy va tarjimon odatda mehmonlardan ba'zi savollar so'rashi mumkin bo'lib, savdogar yoki elchining davlat nomi, Xitoygacha bo'lgan masofa, shahar va vassal davlatlar soni, aholi soni va savdo mahsulotlari kabi savollarni o'z ichiga oladi [5, 28-29-b.]. Shu o'rinda aytish mumkinki, Xitoy hukumati boshqa davlatdan kelgan elchilarning sovg'a-salomini o'ziga o'lpon sifatida qabul qilgan va elchilarni tribut olib keluvchilar sifatida qayd etgan. Ya'ni sovg'a-salom olib kelgan elchilarni Xitoy o'z vassali sifatida talqin qilgan.

Xitoy manblarida Xorazmning nomlanishi turlicha bo'lib, tadqiqot doirasida 5 xil nomlar aniqlandi. Bular: 1) Huoliximijiya 2) Huoxun 3) Guoli 4) Huocimi/Husimi 5) Xuanquan. Shuningdek, Amudaryoning qadimgi nomi Xitoy manbalarida **“Vuhu”** tarzida keladi.

Xorazm haqida asosiy ma'lumot 24 Tarix (24 Shi) to'plamida keltirilgan. Mazkur to'plam Xitoyning eng qadimgi davrida to Min sulolasi tugashigacha (1644-yil) bo'lgan davr tarixi yoritiladi. **“24 Shi”** ning ikkinchi kitobi **“Xan shu”**ning **“Xiyu Zhuan”** (G'arbiy hududlar) qismida Markaziy Osiyo, xususan Xorazmga oid ma'lumotlar uchraydi. Xususan,

* **Tribut** – bu bir davlat yoki hukmdor tomonidan boshqasiga to'lanadigan to'lovni anglatuvchi atama, ko'pincha bo'ysunish belgisi sifatida yoki himoya kelishuvi doirasida amalga oshiriladi. Bu turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan tovarlar, pul yoki qimmatli sovg'a-salomlar. Tarixiy kontekstlarda, tributlar odatda kuchliroq davlatlar tomonidan zaifroqlardan ustunlikni namoyish etish, tinchlikni ta'minlash yoki ierarxik munosabatlarni o'natish va saqlab turish maqsadida talab qilingan. Qadim va o'rta asrlar diplomatiyasi kontekstida tributlar yuborish amaliyoti xalqaro munosabatlarning keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

mazkur asarda Xorazm (Xuanquan) Qang' (Kangju) davlatiga tobe ekanligi, Xan sulolasi davrida Qang' davlati Markaziy Osiyodagi eng kuchli davlat sifatida keltirilgan [6, 117-118-b.].

Keyingi Xitoy manbalaridan biri 24 Tarix (24 Shi) to'plamining 16-kitobi "**Xin Tang Shu**" (Tan sulolasi tarixi) bo'lib, 941-945-yillarda Liu Xu va Shi Jinlar tomonidan yozilgan. Mazkur manbaning "**Xiyu Zhuan**" (G'arbiy hududlar) qismida Markaziy Osiyo davlatlari "**Jiuxing**" (To'qqiz nom) deb atalib, 9 mamlakat ichida Xorazm (Houxun) ham sanab o'tilgan va Chjavou (Zhaowu) sulolasi vakillaridan boshqarilishi qayd etilgan. Shunigdek, mazkur manbada Xorazm "Huoliximijia" va "Guoli" nomi bilan atalishi, Amudaryoning (Vuhu) janubida joylashganligi, janubi-g'arbda Xazar xoqonligi (Kesa) bilan chegaradosh ekanligi, Xorazm hukmdorlari Kat (Jiduojuzhe) shahrida yashashi keltirib o'tilgan [7, 339-341-b.]. Bundan tashqari, Xitoyning g'arbiy hududlaridagi xalqlar orasida faqat xorazmliklar xo'kiz tortilgan aravalarda sayohat qiluvchi savdogarlar sifatida qayd etilgan. Manbaning eng ahamiyatli jihatlaridan biri, Afrig'iy hukmdor Shoushafarning 750-yil (Tianbao yilining o'ninchi yilida) va 762-yilda (Baoying yilida) Xitoyga jo'natilgan elchililarning Xitoyga kelganligining qayd etilishidir. [7, 341-345-b.].

Keyingi Xitoy manbalaridan yana biri 24 Tarix (24 Shi) to'plamining 19-kitobi "**Jiu Tang Shu**" (Tang sulolasining yangi tarixi) bo'lib, 1045-1060-yillarda Ouyang Xiu va Song Qilar tomonidan yozilgan. Manbaning "**Xiyu Zhuan**" (G'arbiy hududlar) qismida oldingi manbalardagi ma'lumotlarga o'zgartirish va qo'shimchalar qilishgan. Xususan, Xorazm (Huosimi/ Husimi) Eron (Bosi) bilan chegaradosh ekanligi, 645-yilda (Zhenguan yilining 18-yilida) Xorazmdan Xitoyda elchilar tashrif buyurganligini, 753-yil (Tianbao yilining 12-yili), 755-yil (Tianbao yilining 14-yili) Afrig'iy hukmdor Shoushafarning Xitoyga savdo-elchiligi tashrif buyurganini qo'shimcha qilishgan [7, 340-344-b.].

Xitoylik tadqiqotchilardan J. Liyanquan, J. Syuan, S. Shi, J. Dong, S. Yuy izlanishlarida yuqoridagi manbalardan foydalanib, Markaziy Osiyo, xususan, Xorazm haqida to'xtalib o'tishgan. Ahamiyatli jihati shundaki, tadqiqotchilar Xorazm hukmdorlarini Xitoyga tribut keltiruvchilar sifatida qayd etishgan [12,76-80-b; 13, 30-44-b; 14, 318-320-b.]. G'. Boboyorov Xitoy manblarida tilga olingan Chjaovu va arab-fors manbalarida ta'kidlangan Afrig'iylar bitta sulolami yoki alohidami degan masalani ilgari suradi [16, 48-50-b.]. A. Otaxo'jayev ushbu masala yuzasidan N.Y. Bichurin, O. Smirnova ishlariga tayanib, Chjaovularning kelib chiqishini yuechilardan ekanligini ilgari suradi [18, 65-b.]. Tadqiqotchi fikricha, Xunnlardan mag'lub bo'lgan yuechjilar Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoga kelib o'rnashgan va o'z mulklariga asos solishgan. Yuechjilar o'z davlatining nomini saqlab qolish uchun o'zlarini Chjavou nomi bilan atay boshlashgan [18, 65-b.]. Xitoy manbalarida yozilishicha, Chjavoularning Kan xonadoni vakillaridan Samarqand ixshidlari sulolasi, Buxoro, Xorazm, Kushoniya, Marv kabi mulklarning hukmdorlari yetishib chiqqan [18, 66-b.]. A. Otaxo'jayev E. Shavan va Abel-Remusat tadqiqotlariga tayanib "Chjavou" atamasi turkiy bitiklarda "yabg'u", eroniy bitiklarda esa "shava"(shobo) atamalariga bog'lanishini ta'kidlagan [18, 66-b.]. H.V. Haussig fikricha, Chjaovu (chjao-u) turkiy jibu bo'lib, musulmon manbalaridagi siljibu va yunon manbalaridagi siljibul "g'arbiy turk xoqonlari" nasabidir [3,21-23-b.]. Tadqiqotchilardan E.Shavan, O.Smirnova va Z.V. To'g'onlar fikricha, Xitoy manbalaridagi "Chjavou" va arab manbalaridagi "Jamuk" bir xil ekanligini ta'kidlashgan [2, 136-b; 10, 51-b; 19,64-66-b.]. Tadqiqotchi Sh.Qo'ldoshev ishlarida yuqorida keltirigan manbalar asosida Xorazm va uning poytaxti nomlanishi, hududi, Afrig'iy hukmdor Shaufshafar elchiligi kabi ma'lumotlarni keltirib o'tadi [17, 35-

37-b]. Xitoylik tadqiqotchi L. Ying 645–755-yillarda Xitoyga Xorazmdan 6 marta elchilik vakillarini yuborishganini, ulardan 3 ta elchi (751,753 va 755-yillar) Xorazmshoh Shoushafar tomonidan yuborilgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan turli bahslarga sabab bo'lmoqda [7, 341-343-b]. Mazkur masalada tadqiqotchilarning fikrlari 2 guruhga bo'lingan bo'lib, bunga asosiy sabab 751-yilda Xitoy bilan Arab xalifaligi o'rtasida Talos vodiysida jangda Xitoy mag'lub bo'lganidan keyin yetib borgan Xorazm elchiligini arablarning manfaatiga zid ish tutganligi, qolaversa Xorazmning mustaqil kuch sifatida qaytadan maydonga chiqishga urinishi sifatida baholashadi. Bunday yondashuv S.P.Tolstov tomonidan shakllangan bo'lib, keyingi tadqiqotlarda ham o'zgarishsiz ko'chishini adabiyotlar tahlilidan ko'rish mumkin [20, 227-b]. A.O'zbayraktar, J.Heraviy tadqiqotlari yuqoridagi yondashuvni inkor etib, elchilikning asosiy maqsadi Xitoy yordamida arablardan mustaqillika erishish emas, balki Ipak yo'li savdosida Xorazm savdogarlarining tijoriy xafsizligini ta'minlash va ularga ko'proq imtiyozlar berish edi, deb izohlashgan [4,66-b, 8, 153-b, 9, 20-23-b]. Bu o'rinda shuni aytish mumkinki, Ummaviylar davrida Afrig'iylarning cheklangan ichki va tashqi siyosati, Abbosiylar davriga kelib erkinlashgani Xitoy manbalaridan tashqari arab va fors manblaridan ma'lum. Bundan tushunish mumkinki, Shoushafar elchiligidan siyosiy manfaatlar ko'zlanmay, iqtisodiy masalalar bilan bog'liq bo'lgan.

Keyingi Xitoy manbalaridan yana biri "**Veyshu**" (Vey sulolasi tarixi) bo'lib, uning muallifi Vey Shu hisoblanadi. Muallif asarni 551–553-yillarda yozib tugatgan. Asarning "**Xiyu Zhuan**" qismida Xorazm va uning poytaxti bir xil tarzda Husimi nomi bilan ataladi. Xorazm Afutayi xoqonligining g'arbida joylashganligi, yer tekis, kumush, qahrabo qazib olinishi, shuningdek, bu mamlakatdan yetishtirilgan Vuguo (besh turdagi mevalar, jumladan, shaftoli, olcha, o'rik va zaytun) Xitoyga olib borilganligi keltirib o'tilgan. Tadqiqotchilardan T.Yuy yuqoridagi manbada keltirilgan Afutayi (Afutai) xoqonligini Eftaliylar ekanligini ta'kidlagan [21, 76-b].

Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi yana bir manba "**Datang Xiyu Ji**" (Tang imperiyasining g'arbiy hududlari bo'yicha sayohat hisobotlari) bo'lib, uning muallifi buddist rohibi Syuan Szyan (596–664-yillar) edi. Muallif 627–645-yillarda ko'plab hududlarga sayohat qilib, ko'pincha o'zi ko'rgan voqealarni yozgan. 646-yilda Tan imperatori Tayzongning taklifiga binoan mazkur asar yozib tugatilgan. "Datang Xiyu Ji" 12 jildni o'z ichiga olib, jami 138 ta mamlakatning hududi va poytaxti, geografiyasi, qishloq xo'jaligi, savdo, urf-odatlar, til, yozuv, pul, din va boshqalar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xorazm (Holiximijia) haqidagi ma'lumotlar birinchi jildda 34 ta mamlakat ichida 15-o'rinda qayd etilgan. Mazkur asarda quyidagi ma'lumotlar aks etgan: "*... Xorazm (Holiximijia) Vuhu daryosining ikkala sohilida joylashgan, sharqdan g'arbga 20-30 Li*(10-15 km), shimoldan janubga 500 Li (250 km) uzunlikda cho'zilgan... Mahalliy sharoit va urf-odatlar Fadi(Poykand) bilan bir xil. Ularning tillari juda o'xshash...*"

Tadqiqotchilardan S. Chji, S. Syuy, T. Yuy, S. Bel, E. Bretshneyder ishlarida yuqoridagi manbadan foydalanib, Eftaliylar, Turk xoqonligi tarixiy kontekstida Xorazmga oid ma'lumotlar keltirib o'tishgan. Yuqoridagi mualliflarning ishlari ko'pincha tavsfiy hisoblanib, Xorazmning hududi, chegarasi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida qisqacha to'xtalib o'tishgan. Fransuz tadqiqotchisi E. Vessyer o'z izlanishlarida Xitoy manbalardan foydalangan holda Xorazmning chegaradosh hududlaridan qancha masofada ekanligini

* Li – bu an'anaviy Xitoy masofa birligi. Tarixiy jihatdan uning aniq uzunligi vaqti-vaqti bilan va Xitoyning turli joylarida farq qilgan, ammo zamonaviy tarixshunoslikda 500 metr yoki 0,5 kilometrغا teng deb qaraladi.

aniqlashtiriadi. Xususan, Xorazm Sug'diyonadan 300 km, Kaspiy dengizining janubiy-sharqidagi Sosoniylar chegarasidan 900 km va Quyi Volgadan 1300 km uzoq masofada joylashganligini keltirib o'tgan [11, 122-b].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xitoy manbalarida Xorazming Xitoygacha bo'lgan masofasi, hududi, qanday mevalar yetishtirilishi va savdo-sotiqda qaysi mahsulotlar eksport qilinishi, shuningdek, mintaqaning urf-odatlarini boshqa hududlar bilan solishtirish asosida keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, savdo va elchilik munosabatlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Umuman olganda, Xitoy manbalaridagi ma'lumotlar Afrig'iyalar sulolasining tarixini chuqurroq tushinishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu manbalar Xorazmning ilk o'rta asrlar davri madaniy va iqtisodiy hayotini yoritishda kalit rol o'ynaydi. Biroq bu manbalarning cheklanganligi va ba'zi bir tarixiy voqealarning batafsil yoritilmaganligi tufayli, Xorazm tarixini yanada chuqur o'rganish uchun qo'shimcha manbalarni jalb qilish va yangi tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bretschneider.E. Mediaeval researches from eastern Asiatic sources. London: K. Paul, Trench, Trübner, 1910. –93 page.
2. Chavannes E. Documents sur les T'ou-kiue (Turcs) occidentaux. / Bulletin de l'École française d'Extrême-Orient. Année. 1904. 136 p.
3. Haussig H.W. Die Quelle über die zentralasiatische Herkunft der europäischen Awaren // Central Asiatic Journal. –1956. – № 1.S-21–43.
4. Heravi C, Özbayraktar A. Âl-i 'Îrâk (Hârezm'de Sâmânîlere tâbi yüz yıllık bir iktidar hakkında yeni bir araştırma) // Amasya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. – 2018. –№ 2. S-66.
5. Hirth F. China and the Roman Orient. –Munich/Shanghai: Georg Hirth /Kelly and Walsh,1885. –28-29-pages.
6. Hulsewé A. F. P. China in Central Asia: the early stage, 125 B.C.-A.D. 23. –Leiden: EJ Brill,1979. –117-118 pages.
7. Ling.Y. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm // Archivum Eurasiae Medii Aevi. – 2000. – № 11, 339-367 pages.
8. Özbayraktar A. Afrîğ Hanedanı: Hârezmşâh II. Muhammed'in Soyağacı Üzerine Bir İnceleme. İran Çalışmaları Dergisi. Cilt: 7, Sayı: 1.2023., s. 153
9. Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm'de yerel yönetim. Harezmsahlar ve etrafındaki dünya. / Ed.O.Bozan, M.Saylik. Bursa.2024. –S.20-23.
10. Togan A.Z.V. Umumî Türk Tarihi'ne giriş. İsmail Akgün Matbaası.1946. Cild I. – S. 51.
11. Vaissière É. Asie centrale 300-850: Des routes et des royaumes. –Paris: Les Belles Lettres,2024. –122-123 pages.
12. Xuan Zhuang. Notes on the Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. –Beijing. Zhonghu a Book Company,1985. –76-80 pages.
13. Yu.X. Ancient Manuscripts of the Great Tang Record of the Western Regions // Wen Xian. –2010. –№4. –30-44 pages.
14. Zhou Liankuan. Collection of historical and geographical research on the Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. –Beijing. Zhonghua Book Company,1984. –318-320 pages

15. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т.I, «Памятники минувших поколений», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1957.С-72
16. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Тошкент – Урганч. 2018. – 48-50 бетлар.
17. Қўлдошев Ш.Т. Ўрта асрлар хитой манбаларида Хоразм воҳаси тарихига оид баъзи маълумотлар // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Тошкент – Урганч. 2018. – 305-307 бетлар
18. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида Турк-Суғд муносабатлари.Тошкент. 2010. –65 бет.
19. Смирнова О.И. Тюркологические заметки. Титул жамук у тюрков // СНВ. – Вып. XI. – М.: Наука, 1971. – С. 64–66.
20. Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. Тошкент: Фан, 1964. С.227.
21. Юй Т. Эфталиты и Согдиана / Согдийский сборник Вып.4. Ред. Шамсиддин К. –Mauritius. LAP LAMBERT Academic Publishing.2017. С 76.